# Koʻrkam koʻpriklar zamonaviy taraqqiyot yoʻllarida

Istiqlol yillari amalga oshirilgan keng koʻlamli bunyodkorlik ishlari haqida gap ketar ekan, koʻz oldimizda mahobatli imoratlar, shaharlarimizda boʻy choʻzgan bir-biridan koʻrkam va obod manzillar gavdalanadi. Shular qatorida bunyod etilayotgan muhandislik inshootlari ham tahsinga sazovor.

“Koʻprik qurilish” tresti unitar korxonasi tomonidan mustaqillik yillari ulkan ahamiyatga ega koʻprik qurilish ishlari amalga oshirildi.

“Gidrotexnika qurilishi” fakulteti Gidrotexnika qurilishi yoʻnalishi 3 - bosqich 6 - guruh talabalariga “Nazariy va qurilish mexanikasi” kafedrasi katta oʻqituvchisi E.S.Toshmatov “Qurilish mexanikasi va inshootlar zilzilabardoshligi” fanidan amaliyot darsida berilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida talabalarga «Shahidlar xotirasi» xiyobonida oʻziga xos puxta loyiha va yechimlar, koʻpriksozlikda ishlatiladigan betakror an’analar asosida qurib bitkazilgan ferma shaklidagi koʻprikning tuzilishi, panjara sterjenlarining joylashishi va yuk koʻtarish mustahkamligi boʻyicha kengroq ma’lumotlar berib yaqindan tanishtirdi. Gidrotexnika qurilishi yoʻnalishi talabalari amaliy taassurotga ega boʻlishdi.

Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov